

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

application of knowledge in the digital economy.....	360
Z.F.Kasimova	
Beshik to'yi marosimi folklorining o'rganilishiga doir.....	366
M.Y.Mamadjonov, F.A.Bekmuxamedova	
“Mehmon” so'zining o'zbek va ingliz maqollarida ijobiy hamda salbiy ma'noda qo'llanilishi	369
S.A.Mahmudova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik masalalari.....	373
S.J.Saidmuradova, X.Xolmurodova	
Milliy xarakter va badiiy psixologizm.....	378
G.I.Yuldasheva	
Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari.....	383
M.M.Кахарова, З.М.Дадахонова	
Цели и принципы контроля в образовательном процессе	389
A.R.Saydullayeva	
Gender yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va istiqbollari	393
T.Akhmedova	
The impact of games on the development of pre-school children.....	398
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	402
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va pedagogik imkoniyatlari.....	406



UO'K: 378.014.15

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA IJTIMOY-KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MASALALARI**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА****PEDAGOGICAL ISSUES OF DEVELOPING SOCIO-CREATIVE COMPETENCE IN FUTURE PEDAGOGUES BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH****Mahmudova Sumbula Abdumalikovna**

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning kognitiv-metodik tizimi hamda islohotlar sharoitida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini va kreativ kompetensiyani rivojlantirish o'rganilgan. Shuningdek, integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik masalalari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье исследуется познавательльно-методическая система развития социально-творческой компетентности будущих педагогов и развития навыков социальной активности и творческой компетентности у будущих педагогов в условиях реформ. Педагогические вопросы развития социально-творческой компетентности будущих педагогов также проанализированы на основе интегративного подхода.

Abstract

In this article, the cognitive-methodical system of developing socio-creative competence in future pedagogues and the development of social activity skills and creative competence in future pedagogues in the conditions of reforms are studied. Pedagogical issues of developing socio-creative competence in future pedagogues were also analyzed based on an integrative approach.

Kalit so'zlar: pedagog, ijtimoiy-kreativ, kompetentlik, kognitiv-metodik, ijtimoiy faollik, ko'nikma, malaka, kompetensiya, integrativ yondashuv, rivojlantirish, pedagogik model, reproduktiv, funksional.

Ключевые слова: педагогический, социально-творческий, компетентность, познавательльно-методическая, социальная деятельность, умение, квалификация, компетентность, интегративный подход, развитие, педагогическая модель, репродуктивный, функциональный.

Key words: pedagogic, social-creative, competence, cognitive-methodical, social activity, skill, qualification, competence, integrative approach, development, pedagogical model, reproductive, functional.

KIRISH

Bugungi ta'limiy islohotlar sharoitida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini va kreativ kompetensiyani rivojlantirish orqali ularning o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda, pedagog-o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlarini va ijtimoiy faollik ko'nikmalariga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki o'zga ijtimoiy faollikni ham namoyon qila bilishni, ijtimoiy an'analar va ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Zamonaviy oliy ta'lim talabalariga ko'ra, bitiruvchiga ko'p miqdordagi bilim yoki kompetensiyalar to'plamini berishdan ko'ra tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda ishlash tayyorgarligiga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni mazmunli idrok etish va tanqidiy baholashga, ularning rivojlanishini bashorat qilishga, ularga moslashish qobiliyatini ta'minlaydigan jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash ustuvorlik kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalalari M.Raxmanova, M.Quronov, X.Tojiboyeva, G.J.Tulenova, Q.Quranboyev; ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish borasida N.Abdumuratova, D.Nafasovlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, ta'lim oluvchilarning kreativ ishlashga o'rgatish, ularda turli kompetensiyalarni o'stirikish jihatlari N.Azizxo'jayeva, A.Apidjanova, G.Ibpagimova, N.Muslimov, O'.Tolipov, F.Exsonovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, kpeativ o'qitish muammoalari M.Kadirova, Sh.Pozilova, A.Xalikov, Sh.Sharipov tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamon talabalariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda uning ijtimoiy rivojlanishi va kreativligi muhim rol o'ynaydi, chunki u kasbiy kompetensiyalarni oson o'zlashtirishga va kasbiy adaptatsiya jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtirishga yordam beradi. Bu, albatta, mutaxassislarni tayyorlash sifatini ta'minlashda jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. Bugungi kunda yuqori sifatli kasbiy ta'lim - bu ijtimoiy himoya vositasi, hayotning turli bosqichlarida shaxsning o'zini o'zi anglashi barqarorligining kafolatidir.

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda pedagogik jarayonga ijtimoiy ta'lim-tarbiya va kreativ yondashuv yo'nalishlarini integratsiyalashga asoslangan pedagogik jarayonni yaratish vazifalari dolzarflik kasb etadi. Shu ma'noda, o'quv jarayoniga ta'limning interfaol shakllari, texnologiyalari – integrativ dars, integrativ kun, talabalarini tanqidiy fikrlashga undovchi metodlar jadal joriy qilinmoqda. Ta'limning globallashuvi hamda sog'lom va muammoli ta'lim muhitini tashkil etish orqali talabalarni birgalikda o'qitish maqsadiga xizmat qiladigan integrallashgan ta'limni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Integrallashgan kasblar paydo bo'lmoqda. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishda integratsiyalashgan ta'limning o'rni ayniqsa, muhimdir.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuvni qo'llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogik soha bo'yicha o'ziga xos innovatsion yondashuv bo'lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Integrativ yondashuv – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash jarayonidir. Bu yondashuv o'rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli yondashish, talabalar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Integrativ yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonlariga kompleks va tizimli yondashuv, tizimiy tahlil tadqiqot metodlarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanishda qo'l keladi. Integrativ yondashuv ta'lim va tarbiyani iyerarxik tizim sifatida qarab, ular ustida olib boriladigan tadqiqotlar olib borishda ijobiy samaralarni kafolatlaydi. Integrativ yondashuv bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlari qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

Pedagogik jarayonda integrativ yondashuvdan foydalanish - integrativ funksiyani tadbiiq etishni talab etadi.

Integrativ funksiya – bu funksiya kasbiy ta'limni bog'lovchi maydondir. Bunda ta'lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini – bilim, ko'nikma, malaka, meyor, pedagogik tizimlarni o'zida mujassamlab: bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, talabalarda har xil predmetlarda o'tiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir bo'ladigan hodisalar, tushunchalar, g'oyalar, nazariyalar orasidagi o'zaro integratsiya va har tomonlama bog'lanish borligini o'rnatish olish ko'nikmalarini shakllantirish; bu bog'lanishlar ilmiy va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta'minlash; talabalarda ijodkorlik masalalarini nazariy to'g'ri texnik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq yechishda, turli o'quv predmetlarini o'rganishda olgan bilim va mahoratlari asosida texnikaviy – iqtisodiy, ijtimoiy – ekologik, tashkiliy – pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini to'g'ri shakllantirish ko'nikmalarini hosil qilishlarini nazarda tutadi.

O'qitish mazmunini integratsiyasi – o'zaro ta'sir, aloqa, bir-biriga o'tish jarayoni va natijalari, bilim sintezi, faoliyat turlari va iqtidori (qobiliyati) yaxlit bir tizim deb tushunilishidir. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirish o'quv fanlarini, shu jumladan ijtimoiy fanlarni pedagogika fanlari bilan bog'lab o'qitishni talab qiladi. Chunki, birinchidan, muammolar yechimi kompleks tadbirlarni talab qilib, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlaridan qarash va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarur bo'ladi. Ikkinchidan, ijtimoiy-kreativ kompetentlik faqat ma'lum bir fan asosida aks etmasdan, fanlararo bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Chunki, birona fan doirasida uni to'liq amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda turli fanlarni o'qitish jarayonida ijodiy izlanishni amalga oshirish imkoniyatlari ham bir xil emas. Ular fanning o'ziga xos vazifalari va mazmuni bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmunini integratsiyalashning asosiy mazmuni o'quv dasturlarini integratsiya qonuniyatlariga asoslanib ishlab chiqishdan iborat. A.Blumning [1] ta'kidlashicha, ta'lim mazmunini integratsiyalash darajasi bo'yicha tuzilgan dasturlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Muvofiqlashtirilgan. Unda biror bir sohadagi bilimlar boshqa bir sohadagi bilimlarga asoslanadi.

2. Omuxtalashtirilgan. Bir muncha keng bo'lgan fanlararo aloqa asosida tuzilgan boblarni yoki boshqa yirik bloklarni o'ziga birlashtiradi.

3. Aralash. Muammoni hayotning turli sohalariga oid bilimlar orqali yechishni ko'zda tutadi.

Shunday qilib, ilmiy integratsiyalash jarayoni shundan iboratki, ular fanlarning turli guruhlari va majmualarini vujudga keltiradi. Integratsiya jarayonining mazmunini ro'yobga chiqarish bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tematik integratsiya (bir nechta fan bitta mavzu mazmunini yoritadi). Bu bosqichni ko'rgazmali-tasviriy bosqich deb ham atash mumkin.

2. Muammoli integratsiya (talabalar bir muammoni turli xil fanlarning usullari orqali hal qiladilar).

3. Konseptual integratsiya (konsepsiya turli xil fanlarning metod va vositalari yordamida ko'rib chiqiladi).

4. Nazariy integratsiya (turli xil falsafiy nazariyalarning o'zaro kirishib ketishi) [4].

Integratsiyaning mohiyati o'zaro kirishib ketish, o'zaro bir-birini to'ldirish, o'zaro moslik va o'zaro muhtojlikni anglatadi. Demak, talabalarning integrativ ko'nikmalarini shakllantirishni amalga oshirish uchun nazariy bilimlarni tematik integratsiya va amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun muammoli integratsiya elementlaridan foydalanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi [5].

Bizning nazarimizda, integratsiya uzviylik tushunchasi bilan o'zaro bog'liq bo'lib, uni amalga oshirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Uzviylikning mohiyatini birinchidan, obyektida yangi tomonlar, xossalari va sifatlar paydo bo'lishi bilan, ikkinchidan, yangida eskining rivojlangan elementlari, tomonlari va an'alarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Uzviylikni ta'limda amalga oshirishning eng muhim tomoni bo'lib, ta'lim berishda uzviylikni ta'minlash, ya'ni talabalar ongida o'zlashtirilgan bilimlarning ichki o'zaro bog'liqligini joriy qilish, ularni tizimlashtirish hamda ta'lim va hayotning turli xildagi sharoitlarida qo'llash bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy tajribaning kengayishi va murakkablashuvi, ma'lumotlarni olish va qayta ishlashda yangi shakllarning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda mutaxassisning kompetentligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy yo'nalishidagi jiddiy o'zgarishlar, har bir insonning shaxsiyatiga asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida e'tibor qaratish, ta'lim sohasidagi kadrlar tayyorlashning shunday tuzilishini nazarda tutadiki, bu har bir kishi tomonidan uzluksiz pedagogik ta'limning barcha bosqichlaridan o'tishning individual marshrutini taqdim etishni taqozo etadi.

Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasini hal qilishda hozirgi paytda ta'limning o'zi ham ijtimoiy institut sifatida qaralishini yodda tutish kerak. Shu ma'noda, o'qituvchilar jamiyatda ikki muhim rol o'ynaydi: bir tomondan, ular "ijtimoiy buyurtma" ning bevosita ijrochisi, ikkinchi tomondan, mustaqil ijtimoiy kuch sifatida harakat qiladi, buning natijasida, jamiyatdagi ta'limning yetakchi roli yosh avlodni ijtimoiy ideal va shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiradi.

Hozirgi vaqtda ilmiy, pedagogik va uslubiy adabiyotlarda ta'lim ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. Funktsional jihatdan ta'lim shaxsni ijtimoiylashtirishning yetakchi sharti, kasbiy faollik va mobillik, shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi belgilash hisoblanadi. U shaxs o'zini o'zi anglashni

rivojlantirish sharti sifatida: o'z-o'zini baholash, xulq-atvor motivatsiyasi, qadriyatli yo'nalishlar, ehtiyoj va manfaatlarni shakllantiradi va bu o'zini boshqarishning asosi hisoblanadi [8].

Ta'lim g'oyasining o'zi barcha odamlarning tajribasi va har bir insonning shaxsiy tajribasini shakllantirish va amal qilish usuli sifatida xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida jamiyatning ijtimoiy tajribasi individual tajribaga kiritiladi. Shaxsni madaniyat bilan yaqinlashtirishda aynan ta'lim muhim rol o'ynaydi. Ta'lim makonida inson o'z xalqining etnik madaniyatini, mintaqaning milliy o'ziga xosligini va ular orqali butun dunyo umuminsoniy madaniyatini o'rganadi. Etnik guruhlar, millatlar, jamoalar madaniy merosining yetaklovchisi o'qituvchidir, u kelajak avlodni turli madaniy qadriyatlarga, urf-odatlariga jalb qiladi, o'z etnik-milliy madaniyati tashuvchisi va etnik o'ziga xoslikning ilhomlantiruvchisi bo'lishga da'vat etadi. Ushbu jarayonda pedagogning ijtimoiy-kreativ kompetentligi asosiy rolni o'ynaydi.

Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim elementi bitiruvchining ijtimoiy-kreativ kompetentlikka egaligini o'z ichiga olgan qo'shimcha fazilatlarini shakllantirishdir.

Oliy kasbiy ta'lim davlat standartida bakalavriat ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablarda bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlikni egallashini nazarda tutadi, chunki mutaxassis ijtimoiy sifatlarni va kreativlikni bag'rikenglik bilan qabul qilishga, ijtimoiy-ma'naviy meros va madaniy an'analarga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga tayyor bo'lishi kerak [6].

Shu ma'noda, bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning bosh maqsadi yaqin atrof-muhit, davlat va xalq hayotida, butun insoniyat hamjamiyatida faol va ijodiy rol o'ynashga qodir shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir.

Bu boradagi o'zgacha qarashlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- talabalarni o'z xalqiga va Vataniga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash;
- vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usini tarbiyalash, milliy ongini shakllantirish, o'z davlati va butun dunyo xalqlarining ijtimoiy va madaniy merosiga hurmat bilan qarash;
- ko'p madaniyatli va plyuralistik jamiyatda yashashga qodir fuqaroni shakllantirish;
- jahon ma'naviy va moddiy-madaniy merosiga ehtiyotkorlik, qimmatli va faol munosabatni ko'rsatib, yuqori madaniyatga ega insonparvar shaxsni shakllantirish; o'tmish xotirasini hurmat qilish va o'tmish avlodlar merosi bilan shaxsiy hissiy aloqani o'rnatish;
- boshqa madaniyatlar va xalqlarga mehribonlik, tolerantlik munosabatni shakllantirish;
- shaxsni o'z vatandoshlari va butun insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy muhitga kiritish va ijtimoiy muloqot va jamoat xatti-harakatlarida foydali bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish;
- talaba shaxsi va uning qadriyatlarini shakllantirish, uni tez o'zgaruvchan dunyoda hayotga tayyorlash, axborot jamiyati, uning zamonaviy aloqa shakllarini o'rgatish, ish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'lumotni o'rganish, samarali qaror qabul qilishga o'rgatish.

Olimlarning yuqoridagi fikrlaridan ko'rinib turibdiki, har bir fikrda ta'limning ijtimoiy tarkibiy qismi mavjud. Shu munosabat bilan S.SH.Alimovning quyidagi ta'rifi ishonchliroq: o'qituvchining ijtimoiy kompetensiyasi kasbiy pedagogik kompetentlikning ajralmas qismi bo'lib, u mutaxassisning integral xarakteristikasi sanaladi va u milliy madaniyat, til, din to'g'risidagi o'z mamlakati ta'limi va pedagogika fani bo'yicha kompleks ijtimoiy bilimlarini o'z kasbiy faoliyati jarayonida qo'llashga tayyorligi va qobiliyatlarini taqozo qiladi [4]. Natijada, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni va ta'lim tizimidagi umumiy vaziyatni hisobga olgan holda, pedagogik jarayonni tashkil qilishning eng optimal variantlarini tanlashga, uning natijalarini bashorat qilishga, o'z vaqtida navigatsiya qilish, zamonaviy sharoitlarga moslatirish, qiyin vaziyatlarni oldindan bilish va ortda qoldirishga qodir bo'lgan o'qituvchi-mutaxassisga ehtiyoj paydo bo'ladi [7].

XULOSA

Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim elementi bitiruvchining ijtimoiy-kreativ kompetentlikka egaligini o'z ichiga olgan qo'shimcha fazilatlarini shakllantirishdir. Oliy pedagogik ta'lim davlat standartida bakalavriat ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablarda talabalarning ijtimoiy-kreativ kompetentlikni egallashi nazarda tutilgan, chunki mutaxassis ijtimoiy va ijodiy bag'rikenglikni qabul qilishga tayyor bo'lishi hamda ijtimoiy-pedagogik meros va madaniy an'analarga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Blum A.H.. Development of an integrated science curriculum information scheme/ Eur/J.Science. Education 1991. –1-15p.
2. Znak N., Sedova N. Approaches to the development of key competences of the 21st century in the national research university higher school of economics. Society. Integration. Education. Proceedings of the International Scientific Conference, vol. I, May 25th-26th, 2018, – p. 656-666. Available at: <http://dx.doi.org/10.17770/sie2018vol1.3238>
3. Авазбоев А.И. Ўқув предметлари мазмунини интеграциялаш асосида меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашни такомиллаштириш. Ном. дисс. 13.00.02. п.ф.н. Тошкент, 2001.-Б. 12.
4. Алимов С.Ш. Формирование социокультурной компетенции учителей общеобразовательных школ республики Таджикистан. Дисс. ...канд. пед. наук. Душанбе, 2009.
5. Баркунова О.В. Формирование профессиональной компетентности социального педагога в процессе педагогической практики: Автореф. ... дисс. канд. пед. наук. Шуя, 2010.
6. Варлакова Ю.Р. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе: автореф. дисс. канд. пед. наук: –Красноярск, 2013. – 17 с.
7. Гончаров С.В. Социальная компетентность личности: сущность, структура, критерии и значение// Образование и наука. 2004. № 2 (26). С. 3 – 18
8. Шумовская А.Г. Формирование креативной компетентности будущего педагога в научном сотворчестве: автореф. дисс. канд. пед. наук: –Чита: 2013. – С. 23.